

KORPORATIV BOSHQARUV KODEKSINING TAVSIYALARIGA RIOYA QILISH TO'G'RISIDA XABARNOMA

"RIOYA QIL YOKI TUSHUNTIR" XALQARO TAMOYILI BO'YICHA E'LON

"O'ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLIYALASHTIRISH KOMPANIYASI" aksiyadorlik jamiyatining 2020-yil 25-maydagi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan, jamiyat 2020-yil 25-maydan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha komissiya yig'ilishining 2015 yil 31 dekabrda bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini ixtiyoriy ravishda amalga oshirish majburiyatini olgan.

"O'ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLIYALASHTIRISH KOMPANIYASI" AJ 2021 yil 1 yanvardan 2021 yil 31 dekabrgacha bo'lgan davrda o'z faoliyatini Korporativ boshqaruv kodeksi (keyingi o'rinlarda Kodeks deb yuritiladi) tavsiyalariga muvofiq amalga oshirganligini va kelajakda rioya etish niyatida ekanligini ma'lum qiladi. Shu bilan birga, hisobot davrida Kodeksning tavsiyalariga ayrim istisnolar bilan rioya qilindi.

I. Kodeks III bobining 15-bandi:

5-bandi tavsiyasiga ko'ra, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida AJning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni belgilash, affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlar va yirik bitimlar ijro etuvchi organ tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi uchun masala muhokama qilinishini ta'minlaydi.

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga hamda, "O'ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLIYALASHTIRISH KOMPANIYASI" AJ ustaviga asosan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga yirik bitimlar tuzish va bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish masalalari kiradi.

Shu bilan birga, "O'ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLIYALASHTIRISH KOMPANIYASI" AJning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni aniqlash to'g'risidagi masala "O'ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLIYALASHTIRISH KOMPANIYASI" AJ aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilishi belgilandi.

III. Kodeksning V bobi 22-bandni 4-xatboshi tavsiyasiga ko'ra: xorijiy amaliyotda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan boshqaruv usullari, jumladan, SWOT, GAP tahlili va boshqa yondashuvlar, maxsus dasturiy mahsulotlar va boshqalar keng qo'llaniladi.

"O'ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLIYALASHTIRISH KOMPANIYASI" AJ o'z faoliyatida maxsus dasturiy mahsulotlardan keng foydalanmoqda. Shu bilan birga, "O'ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLIYALASHTIRISH KOMPANIYASI" AJda boshqaruv usullari va boshqa yondashuvlardan foydalanish, shuningdek, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish ko'zda tutilgan.